

VII. ISTE'MOL BOZORI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdordlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 23,7 foizga ko'payib, 789,4 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,3 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 5,3 foizga o'sib, 2 334,9 mlrd. so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 27,5 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 5 372,1 mlrd. so'm yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to'g'ri keldi 2023 yilning shu davriga nisbatan 6,6 foizga oshgan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 63,2 foizga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2024 yil yanvar–iyun)




Chakana savdo - tovarlarni yetkazib berishda ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga bo'lgan tovar harakati jarayonidagi xo'jalik aloqalarining so'nggi zanjiri bo'lib hisoblanadi. Chakana savdoda moddiy resurslar muomala jarayonidan jamoa, yakka xoldagi, shaxsiy iste'mol sohasiga o'tadi, ya'ni iste'molchilarning mulki bo'lib qoladi. Bu jarayon oldi-sotdi orqali amalga oshiriladi, chunki iste'molchilar o'zlariga zarur tovarlarni o'zlarining pul daraomadlariga almashishadi. Bunda ishlab chiqarish va muomala jarayonining yangi sikli uchun yangi imkoniyatlar mavjud bo'ladi, chunki ushbu xolatda tovarlar nulg'a avlanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri 42,1 foizni, G'ijduvon tumani 15,6 foizni, Qorako'l tumani 7,2 foizni, Buxoro tumani 6,1 foizni va Romitan tumani 5,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Olot tumani 2,7 foizni, Kogon tumani 2,1 foizni va Qorovulbozor tumani 1,9 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi

2024 yil yanvar-iyun, foiz hisobida



2024 yil yanvar-iyun oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 23,7 foizga ko'paydi. O'z navbatida Buxoro shahri (143,7 foizni) va Buxoro (112,3 foizni) tumanlarida eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Kogon shahri (66,3 foiz) va Romitan (71,3 foiz) tumanlarida past o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 8 496,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 789,4 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 123,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 707,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 106,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 107,9 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 115,4 %) tashkil etdi.

Chakana tovar aylanmasi hududlar kesimida
(avto savdosiz)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>2023 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>ming soʻm</i>	<i>2023 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>
Viloyat boʻyicha	8 496,4	107,6	4 142,8	105,9
Buxoro sh.	3 573,4	108,4	12 072,2	106,3
Kogon sh.	236,0	102,0	3 636,7	100,5
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	516,2	104,7	2 882,1	102,6
Vobkent	232,8	104,7	1 560,3	102,8
Jondor	393,0	106,1	2 111,8	104,2
Kogon	178,4	123,0	2 101,4	120,4
Olot	231,3	106,4	2 208,8	104,8
Peshkoʻ	242,2	108,7	1 841,5	106,8
Romitan	449,0	106,9	2 960,1	105,3
Shofirkon	338,8	105,9	1 813,9	104,8
Qorakoʻl	615,4	102,3	3 571,6	101,0
Qorovulbozor	163,3	107,4	8 168,2	105,3
Gʻijduvon	1 326,6	110,6	40 98,1	108,7

Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) aholi jon boshiga 5,9 foizga ko'payib, 4 142,8 ming so'mni tashkil etdi (2023 yil yanvar-iyun oylarida 3 661,0 ming so'mni tashkil qilgan edi). O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlarni Buxoro shahri (12 072,2 ming so'm), Qorovulbozor tumani (8 168,2 ming so'm) va G'ijduvon (4 098,1 ming so'm), eng past ko'rsatkichlarni esa Vobkent tumanida (1 560,3 ming so'm), Peshko' tumanida (1 841,5 ming so'm) va Shofirkon tumanida (1 813,9 ming so'm) qayd etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

Umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi, (mln.so'mda)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 375,9 mlrd. so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	375,9	108,8
Buxoro shahri	231,5	107,5
Kogon shahri	6,3	104,6
<i>tumanlar:</i>		
Buxoro	15,8	125,6
Vobkent	23,5	105,1
Jondor	8,5	106,3
Kogon	6,7	107,7
Olot	5,1	108,1
Peshko‘	5,7	125,8
Romitan	26,2	108,8
Shofirkon	7,7	106,5
Qorako‘l	10,0	106,1
Qorovulbozor	9,1	140,1
G‘ijduvon	19,8	107,0

2024 yil yanvar-iyun oylarida umumiy ovqatlanish savdo tovar aylanmasida eng yuqori o‘shish sur‘atlari Qorovulbozor (140,1 foizni), Peshko‘ (125,8 foizni) va Buxoro (125,6 foizni) tumanlarida qayd etilgan bo‘lsa, eng past o‘shish sur‘atlari Vobkent tumani (105,1 foiz) va Kogon shahri (104,6 foiz) da kuzatildi.

Hududlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda



- | | | | | |
|--------------|-------------|-------------|----------------|-----------|
| ■ Buxoro sh. | ■ Kogon sh. | ■ Olot | ■ Buxoro | ■ Vobkent |
| ■ G'ijduvon | ■ Kogon | ■ Qorako'l | ■ Qorovulbozor | ■ Peshko' |
| ■ Romitan | ■ Jondor | ■ Shofirkon | | |

Ovqatlanish tashkilotlari tovar aylanmasi aholi jon boshiga 183,3 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Buxoro shahri (782,2 ming so'm) va Qorovulbozor tumani (457,4 ming so'm) kuzatildi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

2024 yil yanvar–iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 007,0 mlrd. so‘mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil qildi.

Umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 108,2 foizni tashkil qildi, hajmi 1 857,9 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajimda katta ulushga ega bo‘lgan Buxoro shahri (44,8 foiz), Kogon tumani (7,6 foiz), Vobkent tumanida (17,7 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorovulbozor tumani (0,5 foiz), Shofirkon tumanida (0,5 foiz) va Olot tumani (0,4 foiz) ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Buxoro viloyati hududlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 8,0 foizga oshib, 4 149,1 mlrd. soʻmga va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 69,1 foizni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2023 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>
Viloyat boʻyicha	6 007,0	100,0	108,2
Buxoro sh.	2 689,0	44,8	96,3
Kogon sh.	46,2	0,8	41,4
tumanlar			
Buxoro	106,3	1,8	129,6
Vobkent	1 063,7	17,7	148,4
Jondor	302,2	5,0	140,0
Kogon	455,0	7,6	112,2
Olot	25,4	0,4	126,4
Peshkoʻ	411,5	6,9	105,9
Romitan	373,9	6,2	129,2
Shofirkon	28,7	0,5	128,5
Qorakoʻl	57,0	0,9	125,6
Qorovulbozor	27,5	0,5	128,6
Gʻijduvon	420,6	7,0	95,7

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.